

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING FAOLLIGINI OSHIRISH ASOSLARI

K.Z. Muzaffarova

QarMII katta o'qituvchisi

X.R. Abdulkarimov

QarMII, "Bank ishi" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni faollashtirish va unda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bank tizimining rolini oshirish zarur ekanligi bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya jarayoni, investitsion faoliyat, investitsion portfel, investitsion siyosat

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillar davomida milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish ishlari turli iqtisodiy vositalar yordamida amalga oshirilmoqda. Ushbu natijaga erishish uchun iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorida investitsion faollikni oshirish talab qilinadi. Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy jihatdan ta'minlanishi ushbu sektorni yanada barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur masalani ijobiy hal etishda tijorat banklarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari investitsion siyosatining samarali tashkil etilishi esa iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda va real sektorni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jahon investitsiya bozorida ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishi uchun viloyatning Investitsiya va tashqi savdo qo'mitasi Xalqaro moliya institutlariga a'zo bo'lib, investitsion faoliyat munosabatlarini jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan foydalanib takomillashtirib xalqaro normalarga muvofiq lashtirishi lozim. Bundan xorijiy investorlar mintaqa iqtisodiyotiga katta miqdorda xorijiy investitsiyalarni kiritishga manfaatdorligi oshadi va ularga qulay investitsion muhit yaratadi.

Metodlar va materiallar. Jahon tajribasidan bizga ma'lumki, tijorat banklarining investitsion jarayonlarda faol qatnashishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda va mamlakat sanoat salohiyatining mustahkamlanishida muhim o'rin tutadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni qayta taqsimlash moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Investitsion jarayon natijasida pul mablag'lari moliyaviy soha yordamida ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltiriladi va bu jarayonda tijorat banklari muhim o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektor rivojlanishini rag'batlantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni qabul qilindi ushbu strategiyaning asosiy maqsadi etib zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni faollashtirish va unda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish zarurati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bank tizimining rolini oshirish bilan belgilanadi. Investitsion salohiyatni oshirishda banklar ishtiroki investitsion maqsadlarga bank mablag'larini yo'naltirish, investitsion xarakterdagi kreditlarni berish, ulushli ishtirok etish va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Natijalar va muhokama. Tijorat banklarining investitsion faolligi ularning moliya-sanoat guruhlaridagi ishtirok orqali yanada rivojlanadi. Chunki, moliya-sanoat guruhleri doirasida banklar istiqbolli investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni tashkil qilish hamda moliyaviy resurslarni yuqori daromadli sohalarga yo'naltirish asosida investitsion faolligini oshiradi.

Banklar uchun moliya-sanoat guruhleri tarkibida investitsion siyosatni amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: bank resurslari barqarorligini ta'minlash va ularning resurs bazasini yanada kengaytirish; foydalilik darajasi yuqori bo'lgan investitsion loyihalarni amalga oshirish; moliyaviy risklar darajasini kamaytirish va kapital qo'yilmalarni diversifikatsiyalash; likvidlilik darajasini oshirish; korxonalarni tashkil etish va aksiyadorlik munosabatlarini rivojlantirish, ustav kapitalida ulushli ishtirok etish orqali ular faoliyatiga ta'sir etishni kuchaytirish.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash va ularni boshqarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish amaliyotini rivojlantirish tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish va investitsion siyosatni samarali yuritish borasidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, investitsion loyihani amalga oshirish jarayonida turli omillarning ta'siri natijasida muayyan darajada moliyaviy risklar yuzaga kelishi va loyihaning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu boisdan moliyaviy risklarni baholash va ularning salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu borada tijorat banklari investitsion siyosat doirasida monitoring olib borish tizimini va amaldagi investitsion loyihalarni tahlil etish jarayonini faollashtirishlari lozim.

Banklarning investitsion siyosatini samarali tashkil etish va ularning investitsion faolligini oshirishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- investitsion portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish amaliyotini yaxshilash, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tadbir etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- investitsion siyosatni amalga oshirishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni baholash va ularning ta'sir darajasini chuqur tahlil etish lozim;
- tijorat banklari va sanoat korxonalari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'sirchan choralarni amalga oshirish, xususan korxonalaridagi investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda banklarning ishtirokini kuchaytirish lozim;

- moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash orqali moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish;

- kapitallashuv darajasi yuqori bo'lgan tijorat banklari ishtirokida moliya - sanoat guruhlarini tashkil etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim, chunki bu holat, investitsion munosabatlarda foydalilik darajasini oshirish va risklarni pasaytirishga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar. Shunday ekan, mamlakatimizda ham tijorat banklarining investitsion siyosatini aynan shulardan kelib chiqib zamon talablariga moslashtirish qat'iy talab etilyapti. Buni amalga oshirishda ularning investitsion faoliyatning maqsadli mo'ljallari tizimini tashkil etish va mazkur maqsadlarga erishish usullarini erkin tanlash uchun imkoniyat berilyapti. Shu o'rinda investitsiya yo'nalishida tijorat banklarini rag'batlantiruvchi omillar bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin:

- raqobatdagi ustunlikni oshirish;
- resurs bazasini kengaytirish hisobiga kreditlash hajmini oshirish,
- kredit portfeli tavakkalchiliklarini diversifikatsiyalash asosida tavakkalchilik darajasini kamaytirish,
- kredit qaytmasligi tavakkalchiligini kamaytirish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, tijorat banklari ishtirokida integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni shakllantirish banklar investitsion faolligini oshirish, sanoat tarmoqlarini samarali va barqaror rivojlantirish va eng muhimi mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yangi yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, jahon bozorlarida milliy korxonalarining raqobatbardoshligini hamda ularning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bahadirovich, A. F. (2022). Conditions for Forming the Digital Economy in the Republic of Uzbekistan. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2, 88-92.
2. Bahadirovich, A. F. (2021). The Main Directions of State Regulation of Entrepreneurial Activity. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 12, 22-27.
3. Egamberdiyeva Salima Rayimovna, & Aralov Sabir Javli ugli. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. *Journal of Corporate Finance Management and Banking System (JCFMBS) ISSN : 2799-1059, 2(02), 1–10.* <https://doi.org/10.55529/jcfmbs22.1.10>
4. Yakubova, S. S., Egamberdiyeva, S. R., & Boyqobilov, F. S. (2022). TA'LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQRISH HAMKORLIGI SALOHİYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 211-216.
5. Tursunov, I., Jumayeva, G., & Ostanov, K. (2017). Features of innovation development of the economy Uzbekistan. In *International conference on scientific development in North America* (pp. 43-49).
6. Жумаева, Г. Ж., Хасанова, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
7. Алимханова, А. Н., & Мицель, А. А. (2019). Оценка эффективности предприятий на основе метода DEA. Доклады Томского государственного университета систем управления и радиоэлектроники, 22(2), 104-108.

8. Равшанов, А. Д., Хасанов, Ш. Х., & Алимханова, Н. А. (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истикболлари. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 9-14.
9. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
10. Azimova, N. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 183-188.
11. Alisher Ravshanov 2022. The city as a social phenomenon: sociological and historical approaches. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL "THE CAUCASUS AND THE WORLD"*. 24 (May 2022), 153–158. DOI:<https://doi.org/10.52340/isj.2022.24.22>.
12. Kholmurodov, O. (2022). CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 432-436.
13. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
14. Bobaqulovich, R. A. (2022). PROBLEMS OF REFLECTING THE COST OF GOODS AND MATERIAL RESOURCES. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 151-159.
15. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).
16. Zoyirovna, M. K. (2022). DYNAMICS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF KASHKADARYA REGION AND THE FACTORS AFFECTING IT. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 226-233
17. Zoyirovna, M. K. (2022). IMPORTANCE OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 219-225.
18. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
19. Mamasabirovich, M. K., & Hakimovich, B. K. (2023). ORGANIZATION OF PRIVATE CAPITAL ACCOUNTING IN ECONOMIC ENTITIES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING (IFRS). *Gospodarka i Innowacje.*, 32, 49-54.
20. Khakimovich, B. K. (2019). THE INTERNATIONAL TREATIES FOR THE AVOIDANCE OF DOUBLE TAXATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Review of law sciences*, 1(7), 89-91.
21. Ziyadullayevich F. J. et al. MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. – 2022. – С. 847-852.

22. Farmanov, J. Z., Rimbojeva, N., & Qaxramonov, F. (2022). MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1191-1197.
23. Musagaliev, A. J., & Shodiev, B. T. (2023). Issues of Efficient Usage of Pastures in the Development of the Cattle Farming Network. *UTTAR PRADESH JOURNAL OF ZOOLOGY*, 81-87.
24. Шодиев Б.Т. (2022). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩ. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 750-759.
25. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. *Вестник науки и образования*, (5-1 (83)), 41-45.
26. Nakimovich, B. A. (2021). Measures to Increase the Popularity Of Banking Services. *International Journal of Modern Agriculture*, 10(2), 3943-3949.
27. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
28. Туробов, Ш. А. (2022). АЁЛЛАР МЕҲНАТИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *ЎТМОИЙ ФАНЛАРДА ИННОВАСИЯ ONLINE ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 127-134.
29. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
30. R. N. Djalilov. (2023). PROBLEMS OF CALCULATION OF VALUE ADDED TAX IN THE TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 65–71. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/52>
31. Hamidovich, D. R. (2022). REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE ORGANIZATION OF CAMERAL CONTROL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS SIGNIFICANCE. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 49-54.
32. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIY TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
33. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
34. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
35. Музаффарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
36. Аликулов, А. Т. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА. In *Актуальные вопросы экономики* (pp. 63-66).
37. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 66-69.
38. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохатлар кўлами. *Архив научных исследований*, (29).

39. Утанов Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. Илкогретим Онлайн , 20 (3).
40. Atajanovich, M. A., Faizullaevich, K. A., & Akhmatzhanovich, M. M. (2022, October). DEVELOPMENT OF THE INVESTMENT MECHANISM DURING THE TRANSITION TO THE DIGITAL ECONOMY. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 25.10, pp. 292-308).
41. Хуррамов Азамат Файзуллаевич, Аралов Худоёр Мусакулович, & Маматов Мамажан Ахматжанович (2022). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТАРМОҚ ТАРКИБИНИ ТАКОМИЛЛАШУВИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (7 (155)), 2-10. doi: 10.34920/EIF/VOL_2022_ISSUE_7_1